

“TASDIQLAYMAN”

“Olmaliq KMK” AJ

Boshqaruv raisi

A.X. Xursanov

06.05.2024-yil

Sanoat texnogen chiqindilarni saqlash omborlarini boshqarish bo‘yicha SIYOSAT

“Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda “Kombinat” deb yuritiladi) O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik sanoat kon korxonalaridan biri bo‘lib, mis, rux va qimmatbaho metallarning muhim ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Kombinat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tabiiy resurslarni asrab-avoylash, tog‘-kon va ishlab chiqarish chiqindilarini samarali boshqarish muhimligini e‘tirof etadi.

Kombinat tabiiy resurslarni tejash va boyitish fabrikalarida qayta ishlangan ruda va shlaklarni qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan sanoat texnogen chiqindilarini saqlash omborlarini boshqarish, resurslardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish muhimligini tan oladi. “Olmaliq KMK” AJ o‘z faoliyatini tabiiy resurslarni barqaror boshqarishga ustuvor ahamiyat beradigan va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtiradigan tarzda amalga oshirishga intiladi.

Kombinatning missiyasi

Kombinatning missiyasi — hosil bo‘ladigan sanoat texnogen chiqindilarini xavfsiz boshqarishni ta’minlash, shuningdek, Kombinat faoliyatining atrof-muhit va jamiyatga salbiy ta’sirini kamaytirishdir. Rangli va qimmatbaho metallarni qazib olish va ishlab chiqarishda, iste’mol va ishlab chiqarish sanoat texnogen chiqindilarini saqlash omborlarini boshqarish Kombinatning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Sanoat texnogen chiqindilarni saqlash omborlarini boshqarish siyosatining asosiy tamoyillari

Kombinat sanoat texnogen chiqindilarni ijtimoiy va ekologik jihatdan ma’suliyatli boshqarishni ta’minlash uchun bir qator korporativ tamoyillarni o‘rnatdi. Amaldagi

atrof-muhitni boshqarish tizimi doirasida Kombinat o'z faoliyatini atrof-muhitga eng kam salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Ushbu Siyosatni qabul qilib, global ekotizimni saqlash uchun barcha mas'uliyatni anglagan holda, Kombinat ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining tuproq, suv butun mintaq va butun mamlakat atrof-muhitiga ta'sirini oldini olish va minimallashtirish istagini bildiradi.

Kombinat o'z faoliyatida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

– Kombinat chiqindilarni boshqarish, shu jumladan sanoat texnogen chiqindilarni barcha amaldagi me'yoriy talablar va korporativ standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;

– Kombinat chiqindilarni to'plash va utilizatsiya qilishning moliyaviy oqibatlarini hisobga oladi: chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish jarayonlariga mablag ' sarflash, davlat darajasida jarimalar va kompensatsiya to'lovlari.

– Ishlab chiqarishda chiqindilarning paydo bo'lishi xavfini boshqarish uchun tegishli yondashuvlarni qo'llaydi;

– Olingan sanoat texnogen chiqindilarni boshqarishda geografik sharoitlarni hisobga oladi;

– Kombinat mahalliy aholini xabardor qiladi va ularning chiqindilarni saqlash joylarini joylashtirish rejalari va ulardan foydalanishning mumkin bo'lgan ekologik va ijtimoiy oqibatlarini minimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida fikrlarini inobatga oladi;

– Kombinat ishlab chiqarish hajmini qisqartirish va qayta ishlangan chiqindilar ulushini oshirish maqsadida, chiqindilarni boshqarish tizimini yaratish, joriy etish va yaxshilash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va aylanma iqtisodiyotga e'tibor qaratish bo'yicha talablar birligini ta'minlaydi;

– Kombinat rahbariyati sanoat texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha tegishli tayyorgarlik darajasiga va zarur kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qiladi, shuningdek Kombinat muntazam o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish orqali, xodimlarning malaka darajasini doimiy ravishda oshirib boradi.

Kombinatning maqsadlari

Kombinatning maqsadi - ruda va shlakni qayta ishlash, shuningdek, chiqindilarni hosil qilish va to'plash bilan bog'liq boshqa faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni minimallashtirish, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatga ta'sir qilishning yuqori standartlariga rioya qilishni ta'minlashdir.

Vazifalar va majburiyatlar

Ushbu Siyosatni amalga oshirish doirasida Kombinat quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- chiqindilarni boshqarishda mavjud atrof-muhitni boshqarish tizimlarini joriy etish va takomillashtirish;
- Kombinat korxonalari chiqindilarining to‘planishi va yo‘q qilinishini nazorat qilish;
- xomoshyo yetkazib beruvchilarga, uning faoliyatida foydalanish uchun zavodga kiradigan resurslar oqimiga bo‘lgan talabni ishlab chiqish: o‘z faoliyatining atrof-muhit va jamiyatga salbiy ta‘sirini minimallashtirish uchun ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya qilish;
- samaradorlikni oshirish va chiqindilarni minimallashtirish uchun resurslardan foydalanishning yopiq davralarni yaratish strategiyasini ishlab chiqish;
- mahsulot ishlab chiqarishda ularning hayot aylanishini hisobga olish va hayot ciklining oxirida qayta ishlash va yo‘q qilish oson bo‘lgan mahsulotlarni yaratishga intilish;
- ishlab chiqarilgan chiqindilar hajmini kamaytirish;
- chiqindilar paydo bo‘lishining moliyaviy xatarlarini hisobga olish-davlat darajasida jarimalar va kompensatsiya to‘lovlari;
- xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarni chiqindilarini qisqartirish, to‘planish, yo‘q qilish yoki keyingi usullari xabardorligini oshirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarini boshqarish sohasida xodimlarni o‘qitish;
- tabiiy resurslar va materiallardan samarali foydalanish;
- chiqindilarni boshqarish sohasidagi jarayonlarni axborotlashtirish va avtomatlashtirish orqali doimiy takomillashtirishni ta‘minlash;
- sanoat chiqindilarini boshqarish masalalari bo‘yicha manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish;
- chiqindilarni boshqarish sohasida atrof-muhit ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam ravishda hisobot berish.